

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.M.Qandov</b>	Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
<b>U.J.Mansurov</b>	Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
<b>M.M.Alimova</b>	1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi .....	312
<b>J.Museyibzada</b>	Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
<b>A.A.Azizov</b>	Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida) .....	324
<b>A.T.Ahmedov</b>	Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari .....	328
<b>D.A.Urinbayeva</b>	Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
<b>T.Ch.Xoliyarov</b>	Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi .....	340
<b>X.X.Mamajonov</b>	Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniy imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar .....	347
<b>I.S.Yusupov</b>	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi .....	351
<b>F.K.Jumanazarova</b>	Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
<b>U.X.Gulmatov</b>	O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni .....	359
ADABIYOTSHUNOSLIK		
<b>U.B.Matmurotova</b>	Badiiy tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida.....	364
<b>Sh.A.Safarova</b>	"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish .....	369
<b>D.I.Nazarova</b>	Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar .....	374
TILSHUNOSLIK		
<b>A.B.Uralov</b>	Til sathlarida nomutanosiblik .....	381
<b>A.Sh.Muxamadiyev</b>	Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
<b>Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova</b>	Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida .....	393
<b>U.Sh.Turaeva</b>	Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
<b>Y.T.Rakhmonkulova</b>	A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages .....	401
<b>O.F.Turdaliyev</b>	"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli .....	405
<b>M.O.Usarova</b>	Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari .....	413
<b>Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова</b>	Смысловые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер .....	417
<b>B.Q.Nomonov</b>	Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



## TIL SATHLARIDA NOMUTANOSIBLIK

## АСИММЕТРИЯ НА ЯЗЫКОВЫХ УРОВНЯХ

## ASYMMETRY AT LANGUAGE LEVELS

Uralov Azamat Begnarovich

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent**Annotatsiya**

Maqolada til sathlarida sodir bo'ladigan nomutanosibliklar tahlil qilingan. Nomutanosiblikning morfemika bilan; leksikologiya va so'z yasalishi bilan; sintaksis va sintaktika bilan; sintaktika va semantika bilan; semantika va semiotika bilan aloqadorligi o'rganilgan. Shuningdek, morfologik shakllarning ma'noga nisbatan nomutanosiblik xususiyati, vazifasiga nisbatan nomutanosiblik holati, vaziyatga nisbatan nomutanosiblik xususiyati, mavhumlikka (noaniqlikka) nisbatan nomutanosiblik xususiyati, belgilarga nisbatan nomutanosiblik xususiyati tahlil qilingan. Belgilarga nisbatan nomutanosiblik bir tilning o'zida sezilishi isbotlangan.

**Аннотация**

В статье анализируются дисбалансы, возникающие на языковых уровнях. С морфемикой несоответствия; с лексикологией и словообразованием; с синтаксисом и синтаксисом; с синтаксисом и семантикой; изучается связь с семантикой и семиотикой. Кроме того, морфологические формы были проанализированы на предмет их несоразмерности значению, несоразмерности функции, несоразмерности ситуации, несоразмерности абстракции (неопределенности), несоразмерности знакам. Доказано, что диспропорция символов может ощущаться и в самом языке.

**Abstract**

The article analyzes the imbalances that occur at language levels. With morphemics of disparity; with lexicology and word formation; with syntax and syntax; with syntax and semantics; relationship with semantics and semiotics is studied. In addition, morphological forms have been analyzed for their disproportion to meaning, disproportion to function, disproportion to situation, disproportion to abstraction (uncertainty), and disproportion to signs. It has been proven that the disproportion with respect to characters can be felt in a language itself.

**Kalit so'zlar:** nomutanosiblik, leksikologiya, semiotika, semantika, sintaktika, so'z yasalishi, vaziyat, belgi, mavhumlik, vazifaga nisbatan nomutanosiblik.

**Ключевые слова:** диспаратность, лексикология, семиотика, семантика, синтаксис, словообразование, ситуация, знак, абстракция, несоразмерность задаче.

**Key words:** disparity, lexicology, semiotics, semantics, syntax, word formation, situation, sign, abstraction, disproportion to task.

**KIRISH**

O'zbek tilida morfologik shakllar nomutanosibligining tilshunoslik bo'limlari va til sathlari bilan aloqadorligi har doim kuzatiladi. Chunki har bir tilda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham har bir sath boshqa bir sath yoki tilshunoslikning bo'limlariga aloqador tarzda ifodalanadi, o'rganiladi. Leksikologiyaning morfologiyaga, sintaksisga aloqasi bo'lgani singari, morfologiyaning ham so'z tarkibiga ko'ra morfemikaga, asos va yasovchilar bilan yonma-yon tarzda so'z yasalishiga, so'zlarning ma'nolari bo'yicha leksikologiyaga, semasiologiyaga, grammatik ma'nolarning ifodalanishiga ko'ra sintaksisga har doim aloqasi mavjud. Bu aloqalar o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Biz bo'lim yuzasidan nomutanosiblikning tilning boshqa sathlariga aloqadorligini tekshirib ko'rmoqchimiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Morfemalar xususida so'z borganda ularning sinxron hamda diaxron tomonlarini aralashtirib yuborilmaslik kerak. Tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar so'zning tarkibiga ham o'z ta'sirini, albatta, o'tkazadi, natijada, u ham asta-sekin o'zgarib boradi. Bunday o'zgarishlar bir qarashda sezilmaydi, faqat kuzatishlar jarayonida aniqlanadi. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, so'z tarkibi uch (ayrim

manbalarda ikki yo'l bilan o'zgaradi. Bular: "soddalashuv, qayta tuzilish, murakkablashuv" [1.135] yoki "soddalashuv, qayta bo'linish, murakkablashuv"[2.129] deb nomlanadi.

So'z tarkibi haqida fikr yuritganda asos va qo'shimchalarni ajratishning o'zi kamlik qiladi, ularning kelib chiqishi, o'zgarishi, qotib qolishi, singishi, qayta bo'linishi, bo'linish chegarasi, qo'shilishi yoki ajralishi kabi holatlarni nazarda tutish kerak bo'ladi. So'z tarkibida o'zgarish sodir bo'lar ekan, albatta, bu o'zgarish avvalgisiga nisbatan nomutanosibdir. Bu haqda A.G'ulomovning "O'zbek tili qo'shimchalari tizimida yondosh hodisalar"[3.211] asarida batafsil ma'lumot berilgan.

*Mening, sening* olmoshlari tarkibidagi kelishik shakli (*men+ning, sen+ning*) qo'shilishi bilan asos tarkibida o'zgarish sodir bo'lmoqda. Binobarin, *men va sen* shaklidagi *-n* fonemasi kelishik shaklining tarkibiga o'tib ketgan. Yoki *men, sen* morfemalariga qaratqich kelishigi affiksi *-ning* birligining *-ing* varianti qo'shilgan bo'lishi aniqroqdir. Chunki uning *-im* varianti ham bor (*manim* kabi) (Buni yuqorida tejash tamoyili va nomutanosiblikni yuzaga chiqishi xususida yozganimizda batafsil qayd etganmiz).

"So'z morfologik strukturasi haqida dastlabki bo'linish chegarasining o'zgarishi: *uniki* so'zi aslida *u(l)* olmoshi, *-ing* qaratqich kelishigi ko'rsatkichi va tegishlilikni ifodalovchi *-ki* affiksidan iborat bo'lgan. Hozirda esa u ikki komponentdan iborat: *u+-niki*"[4.57]. Aslida, *ulning* qisqargan shakli hisoblanadi. Bu holat olmoshga nisbatan ham, qaratqich shakliga nisbatan ham nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda. Chunki asos va qaratqich shaklining tarkibida o'zgarish sodir bo'lib, asl mohiyatini saqlagan holda (maxsus tekshirish orqali tiklash mumkin) tashqi tomondan qisqarishga uchragan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bunday birliklarning tarkibi hozir o'zlarining lug'aviy ma'nolarini yo'qotgan. Endi ularni shu so'zlar tarkibi nuqtayi nazaridan lug'aviy qiymatga ega morfema deb bo'lmaydi, chunki so'zlar tarkibida soddalashish yuz bergan. Bunday shakllarning hosil bo'lish jarayoni til taraqqiyotidagi murakkablashuv, qayta bo'linish, soddalashuv singari omillar ta'sirida yuzaga keladi va ular morfem birliklar doirasida o'ziga xos o'rin egallaydi va turli xilda nomutanosibliklarni ko'rsatadi.

Nomutanosiblikning leksikologiya va so'z yasalishi bo'limlari hamda sathlari bilan aloqador bo'lgan xususiyatlaridan biri shaklga nisbatan nomutanosiblikdir. Shaklga nisbatan nomutanosiblik har bir sohada, fanda mavjud. Uning borligi, ma'lum shakldagina ifodalanadi. Shaklga yuklangan mazmun uning turli belgilarini ko'rsatadi. Bizningcha, nomutanosiblik dastlab shaklda paydo bo'ladi, keyin esa mazmunda rivojlanadi. Leksik sath jihatdan nomutanosiblikni turli xil ko'rinishlarda ifodalash mumkin. Leksik jihatdan so'zlar shakl va mazmun munosabatida turli ko'rinishlarga ega. Jumladan, yasama so'zlarda ham. Shakl jihatidan nomutanosiblikka ega bo'lish ma'lum bir shaklda namoyon bo'ladi. Bu holat leksemalarda ham so'z va shakl yasovchi morfemalarda ham namoyon bo'ladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'noga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Ongda anglangan ma'noning turli variantlari, bunda tushuncha ongda boshqa ma'nolar bilan boyiydi: *idrok, fikr, tafakkur; -siz, no-, be-; -moq, -ish, -uv*. Bu ma'nolarning ko'rinish (vizual) jihati hamda tushunish (virtual) jihatidan ham taqsimlash mumkin.

Vazifasiga nisbatan nomutanosiblik holati ongning o'zidagini emas, bir shakl doirasidagi tasavvurlarni ham shakllantiradi: *qora mol – sigir, buqa, ho'kiz, tana, buzoq...* (bu tushunchalar jinslar o'rtasigagi tafovutni ham shakllantirishi mumkin: *sigir, qochar; ho'kiz, buqa*). Bu birliklar tashqi tomondan turli shakllar hisoblansa-da, mazmun tomoni umumlashib ketadi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Biz *buqa* yoki *sigir* haqida gapirsak ham, ongda *qora mol* haqida tafakkur yuritilaveriladi, binobarin, bu so'zlarni tushunishda boshqa hayvon yoki mavjudot haqida tasavvur qilib bo'lmaydi (*buqa, sigir* deganimizda, *echki* yoki *chigirtka* haqida tasavvur bo'lmaydi).

Vaziyatga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Fikr yoki tushunchani ayni vaziyatga qarab anglash, tushunish nazarda tutiladi. Ya'ni bir belgi ayni vaziyatda boshqa ma'no ifodalaydi. Bu holat ma'no ko'chishida yaqqol seziladi: *asal – asal bola, shirin asal; -cha – yigitcha* (qanday?) *yigitcha* (kim?); *borasan – borasan-a borasan*, vaziyatga qarab inkor ma'nosida ham qo'llanadi (*bormaysan* mazmunida). Tasdiq shakli orqali inkor mazmunini hosil qilinishidagi nomutanosiblik yuzaga chiqmoqda.

## TILSHUNOSLIK

Shuningdek, vazifaga nisbatan ishlatilgan *qora mol* tushunchasi vaziyatga nisbatan ham nomutanosib bo'lishi kuzatiladi. Bu yerda qora mol tipidagi yana boshqa tushunchalar borki, buni nutq momentida anglash mumkin, bunda so'zning vazifasi o'zgaradi: qora mollar – taqiqlangan ashyo, sigir – (og'zaki nutqda) qizlar uchun “saxiy yigit”, buqa – (og'zaki nutqda) jismoniy baquvvat yigit. Demak, anglashilmoqdaki, asli “hayvon” ma'nosini beruvchi bu so'zlar nutq vaziyatida boshqa ma'nolarda ham ishlatiladi va o'sha vaziyatga nisbatan asl so'z nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Mavhumlikka (noaniqlikka) nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Bunda tushuncha tushunarsiz bo'ladi. Lisonda ma'no ifodalamasligi mumkin, sababi bu shakl haqida tafakkurda hech bir ma'no ifodalanmaydi. Mavhumlikka nisbatan nomutanosiblikni tildagi ko'makchilar va bog'lovchilar yuzaga keltiradi. Shuningdek, yangi paydo bo'lgan leksik yoki sintaktik shakllar (so'zlar) dastlabki tushunish vaqtiga nisbatan ham nomutanosib bo'ladi. Ma'no anglab yetilgunicha ong'dagi mavhumlik, tushunmaslik holati bilan bog'liq bo'ladi: *kovid* – korona virus (garchi fanda ma'lum bo'lsa-da, 2019-yilgacha insonlar jamoasi uchun noaniq tushuncha bo'lgan); *bilan*, *va*, *uchun* – ma'nolari mavhum.

Belgilarga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Bunday nomutanosiblik turli belgilarga nisbatan shakllanadi. Nomutanosiblikning bunday xususiyati grafika bo'limiga ham aloqador bo'lib, mavjud belgilarning ekvivalenti paydo bo'ladi va bu ikkinchi variant ham aynan bir ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Turli yozuvlar doirasida boshqa belgilar bilan ifodalanadi.

Bunda uchta belgi bir mazmunga xizmat qilmoqda, faqat ular turli alifbolarda qayd etilgan. Yoki aksincha, bir alifboda ikki xil belgi bir mazmun uchun xizmat qimoqda (bosh harf – kichik harf).

Shuningdek, turli shakllar doirasida ham bo'lishi mumkin. Bunda shaklning hajmlar o'rtasidagi qiyosi ong'da katta yoki kichik sifatida reallashadi: *uchburchak* (figura – uchta burchagi bor shakl: turli tomonli, teng tononli, teng burchakli, to'g'ri burchakli, o'tkir burchakli, o'tmas burchakli).

Belgilarga nisbatan nomutanosiblik bir tilning o'zida seziladi. Fanlar o'rtasida ham bo'lishi mumkin. Aytaylik, ona tilida *bir* so'zi matematikadagi 1 raqamiga mos, bunda ikki xil belgining bir mazmunga mutanosibligi ko'rinsa (shaklga nisbatan nomutanosib), leksema sifatida ona tili, geometriya, kimyo, biologiya fanlari uchun umumiy bo'lgan *inversiya* so'zi turli ma'nolar ifodalab keladi: **Inversiya** – (ona tilida) gap bo'laklarining o'zgarigan tartibi; (geometriyada) tekislik almashtirishlaridan biri; (kimyoda) siklik molekula konformatsiyasining o'zgarishi, natijada o'rinbosarning halqaga nisbatan joylashishi o'zgaradi; (biologiyada) xromosomalarning qayta qurilishi (mutatsiya) tiplaridan biri; xromosomaning ikki nuqtasidan birdaniga uzilishi va uning segmentining ichki tomonga 180° ga burilishi (invertatsiya) tufayli kelib chiqadi [5]. Bu holat shakl va mazmun jihatdan, bir shaklga mos tarzda turli ma'no ifodalamoqda. Natijada fanlararo nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda.

Tilshunoslikda sintaktika sintaksisga aloqador bo'lgan ma'lum qoidalar asosida, turli shakllar kompozitsiyasi (kombinatsiyasi)ni o'rganadi. Sintaktikada mantiqiy bog'lanish, grammatik tuzilish, ohang tugalligi juda muhim xususiyatdir. Nomutanosiblikning sintaktika va sintaksis bilan aloqadorligi ko'p jihatdan mantiqqa bog'liq. Sintaktikadan paydo bo'ladigan mantiqiylik ham sintaksisning talabida ro'yobga chiqadi va ular chambarchas bog'liq bo'ladi. Ch.U.Morrisning ko'rsatishicha, mantiqiy sintaksisning ahamiyati katta bo'lishiga qaramay, uni sintaktikaga tenglashtirish mumkin emas[6.37-89]. Nazariy ma'lumotlarda mantiqiy sintaksis tushunchasi sintaktik tuzilmani o'rganish doirasini faqatgina fanda ustun bo'lgan ramziy birikmalarning ayrim turi bilan chegaralashi va boshqa lingvistik tuzilmalarga ta'sir qilmasligi nazarda tutiladi. Rasmiy uslubda buyruqlar, badiiy uslubda she'r misralari bunga misol bo'la oladi. Ma'lumotning sintaktik shakllanishi lisoniy omil sifatida semantikaga bog'liq:

*Erib bitdi poyonsiz qorlar,*  
yana ko'hna zamin tulladi.

Vodiydagi ulkan o'riklar  
bir kechada oppoq gulladi[7.4].

“Erib bitdi poyonsiz qorlar” gapini “Poyonsiz qorlar erib bitdi”, desa ham bo'lar edi. Bu yerda sintaktika sintaksis talabi bilan emas, badiiyat talabi bilan ish ko'rmoqda. Shu sababli shakllar o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelayotgan bo'lsa-da, mazmun o'z mavqeyini saqlab qolgan.

Nomutanosiblikning sintaktika va semantika bilan aloqadorligi masalasida professor N.Mahmudovning fikrini keltirish o'rinli bo'ladi. Uning yozishicha, "Semantik-sintaktik asimmetriya biz tomondan bir nechta takliflarning sintaktik sodda tuzilishidagi ifoda va natijada sintaktik va semantik tuzilmalar orasidagi simmetriyaning buzilishi sifatida talqin qilinadi. Shuni ta'kidlash joizki, tilda semantik-sintaktik asimmetriyaning paydo bo'lishi tilning ikki doimiy tendensiyasi – lingvistik vositalarning ortiqcha va tejamkorligining u yoki bu shaklda namoyon bo'lishining natijasidir"[8.15-16]. Bu esa har qanday lingvistik birlik u xoh katta yoki kichik bo'lsin, ularning boshqa shakllarda paydo bo'lishi nomutanosibliklarni keltirib chiqaraveradi. Bu holat xuddi morfologik shakllar orasidagi istak mayli "-ay"ni *-ayin* shaklida ham qo'llaganimiz kabi: *boray – borayin*.

Semantikani til yoki uning biron bir birligi orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma'no, axborot[9.7-194] sifatida talqin qiladigan bo'lsak, ayrim so'zlar tarkibi bo'linmas holatga kelib qoladi. Natijada so'z anglatayotgan mazmun tashqi tomondan qismlarga ajraladigandek ko'rinadi: *maymunjon* (o'simlik), *olmaxon* (hayvon). *Maymun-jon*, *olma-xon* kabi ajratib tahlil qilish nomutanosib bo'lib, semantik jihatdan ham, morfologik jihatdan ham to'g'ri bo'lmaydi, chunki tashqi tomondan erkalash shakliga o'xshaydigan *-jon*, *-xon* qismlari va *maymun*, *olma* singari so'zlari mavjudligi sezilsa-da, *maymunjon* va *olmaxon* so'zlarini maymun va olmaga aloqasi yo'q. Bu semantik jihatdan nomutanosib bo'lib qoladi.

Demak, bir shakl bir necha mazmun yoki bir mazmun bir necha shakl ko'rinishiga ega bo'ladi:

1. Mazmun tomonning bir vazifa birligiga til ifoda planining aniq bir farqlanuvchi elementi – bir morfema to'g'ri keladi: 1:1. Bunda bir morfema bitta mazmun ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi *kitob-ni* so'zidagi *-ni* kelishik ko'rsatkichi bo'lgani kabi.

2. Bir-biridan funksional mustaqil bo'lgan bir necha mazmun elementiga ifoda planining bir bo'linmas birligi to'g'ri keladi: 2 (va undan ortiq): 1. Bunda mazmun ikki qismdan iborat bo'lib, yaxlitlangan holda ifodalanadi. Ifoda planining bo'linmas holdaligi (sintetik shakl) mazmun doirasiga ta'sir o'tkazmaydi.

3. Mazmunning bir funksional birligiga ifodaning bir necha birligi to'g'ri keladi: 1:2 (va undan ortiq) munosabat bo'lgani kabi. Shakllanish jihatidan ikki birlik mazmun jihatidan bir birlik tipiga ega bo'ladi.

4. Bir mazmun birligiga alohida ifoda birligi to'g'ri keladi, shu bilan birga, boshqa birlik tarkibiga kiruvchi element ham ishtirok etadi: 2:2, ammo ikkisi yaxlitlashgan. Bir mazmunni ifodalovchi ikki shakl ikki tarkibda o'rinlashadi, ammo semalar maydoni bir-biridan farq qiladi.

5. Ifodaning bir elementiga muayyan ma'no to'g'ri kelsa-da, ushbu ma'noga ko'maklashuvchi birlik boshqa bir element tarkibida ham bo'ladi. Masalan, sifatlarning orttirma nisbat shaklini ifodalovchi *qip-qizil olmalar* birikmasida belgining ortiqchiligi *qizil* so'zining qisqa reduplikativ shakli (*qip-*) orqali ifodalanishi yoki *bala(a)nd* binolar birikmasida ortiqchilik, ko'plik ma'nosining baland so'zining ikkinchi bo'g'indagi *a* unlisini cho'zib aytish hamda *-lar* qo'shimchasi orqali ifodalanish kabi 4- va 5- holatlarda nisbat 1:1,5; 1,5:1 shaklida ko'rinadi (birga bir yarim, bir yarimga bir nisbati kabi).

6. Yana bir nomutanosiblikning ko'rinishi sifatida aytish mumkinki, morfem shakl hamisha ham mavjud bo'lavermaydi. Biz fanda "nol shakl" borligini bilamiz. Bu shakl ham o'ziga xos ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Buni qiyoslash orqali ko'p kuzatganmiz. Mazmunning bir elementiga ifodaning nol ko'rsatkichi to'g'ri keladi: 0:1 nisbati. Natijada nol shakl ma'no ifodalaydi va bunday idodalanishning o'ziyoq nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

7. Bir ifoda birligiga mazmunda qiymatga ega bo'lmagan asemantik element to'g'ri keladi: 1:0 nisbati. Nol formasi shaklda qiymatga ega bo'lmasa, bu nomutanosiblikda shakl qiymatga ega bo'lmaydi, ya'ni mazmun ifodalamaydi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, til sathlarida nomutanosiblik mazmun tomonning bir vazifa birligiga til ifoda planining aniq bir farqlanuvchi elementi – bir morfema to'g'ri keladi: 1:1; bir-biridan funksional mustaqil bo'lgan bir necha mazmun elementiga ifoda planining bir bo'linmas birligi to'g'ri keladi: 2 (va undan ortiq): 1; mazmunning bir funksional birligiga ifodaning bir necha birligi to'g'ri keladi: 1:2 (va undan ortiq); bir mazmun birligiga alohida ifoda birligi to'g'ri keladi, shu bilan birga, boshqa birlik tarkibiga kiruvchi element ham ishtirok etadi: 2:2, 1:1,5; 1,5:1 shaklida ko'rinadi (birga

## TILSHUNOSLIK

bir yarim, bir yarimga bir nisbati kabi); mazmunning bir elementiga ifodaning nol ko'rsatkichi to'g'ri keladi: 0:1 nisbati; bir ifoda birligiga mazmunda qiymatga ega bo'lmagan asemantik element to'g'ri keladi: 1:0 nisbati.

Desemantizatsiyaga uchragan, lekin til tizimida struktur-bog'lovchilik vazifasini bajaradigan asemantik birliklar, interfikslar, biriktiruvchi va tutashtiruvchi tovushlar kabi birliklar bo'lib, ushbu birliklar ham til tizimida biror funksiyaga ega. Chunki biror vazifaga ega bo'lmagan shaklning tilda yashashi mumkin emas.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari, –Toshkent, 2007.
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1981.
3. Гулямов А. Г. О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке /1 Научные труды ТашГУ, вып. –Ташкент, 1963.
4. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент, 1985.
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Inversiya\\_\(ma%C4%BEnolari\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Inversiya_(ma%C4%BEnolari))
6. Моррис Ч.У. Основания теории знаков // Семиотика. / Под ред. Ю.С. Степанова. –М., 1983.
7. Шавкат Раҳмон. Шеърлар. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2016.
8. Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1984.
9. Mirtojiev M. Semasiologiya. –Toshkent, 2016. I bob, –B. 10-76; Mirtojiev M. Gap bo'laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. –Toshkent, 2008.